

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1031>

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE ACT IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Odilova Maftuna Dilshod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

talaba

odilloovee@gmail.com

+998903740949

Annотatsiya. Maqolada chet tilini o'rgatishda AKTning o'rni va ahamiyati qay darajadali, chet tilini o'rgatishda AKTning foydali va afzal tomonlari va AKT ishtirok etadigan pedagogik metodlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: AKT, texnologiyalar, chet tili, ta'lim, kompyuter, internet.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение ИКТ в обучении иностранным языкам, преимущества и преимущества ИКТ в обучении иностранным языкам и педагогические методы с использованием ИКТ.

Ключевые слова: ИКТ, технологии, иностранный язык, образование, компьютер, интернет.

Annotation. The article examines the role and importance of ICT in teaching foreign languages, the advantages and benefits of ICT in teaching foreign languages and pedagogical methods using ICT.

Keywords: ICT, technology, foreign language, education, computer, internet.



XXI asr – zamonaviy texnologiyalar asridir. Bu asrda hayotimizga, jamiyatga, umuman olganda insonlar orasiga yangidan yangi texnologiyalar oqimi kirib keldi. Hozirgi kunda insonlar hayotlarini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilisha olmaydi. Shu bilan birga axborot kommunikatsiya texnologiyalari ham jadal rivojlanmoqda, uning imkoniyatlari ortmoqda. Hatto har bir sohada xoh u tibbiyot bo'lsin, xoh quruvchilik sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalariga doimo murojaat qilinadi. Darvoqe, ta'lim jarayonida ham AKT(axborot kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamon bilan hamnafas yoshlarimizni elektron olam taraqqiyotlari bilan tanishtirish, ularning kompyuter savodxonliklarini yanada oshirish, darslarni yanada mazmunli va qiziqarli olib borishda AKTning o'rnini beqiyosdir.

Biz yashayotgan davr yosh avlodga ta'lim berish jarayoniga har doimgidan boshqacharoq yondashishni talab qilmoqda. Shu bois, darslarda o'qituvchining o'rnini va vazifalari ham o'zgarimoqda. O'qituvchilar dars jarayonini AKT bilan jonlantirishlari zarur. Darsni maksimal darajada qiziqarli va interaktiv tarzda o'tmoqchi bo'lgan o'qituvchi AKTga murojaat qilishi tabiiydir.

Avvallari maktablarda chet tili o'yin tarzida o'tilgan bo'lsa, hozirgi davrda chet tili asosiy ta'lim fani sifatida o'qitilmoqda. Chunki bu-davr talabi. Yoshlarimiz chet tilini o'rganishlari orqali o'zlarining dunyoqarashlarini tubdan o'zgartirishlari, chet ellik tengdoshlari bilan bemalol muloqot qila olishlari, chet tilidagi kitoblarni mutolaa qila olishlari, nafaqat O'zbekistondagi, balki chet elning nufuzli oliygohlari talabasiga aylanishlari mumkin. Xullas chet tillarini o'rganish kattadan katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shuning uchun, chet tillarini o'rganishga, ya'ni AKT vositalaridan foydalangan holda o'rganishga yanada chuqurroq e'tibor berilmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini



puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi."⁴ Shunday ekan chet tilini mukammal o'rganishda va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishda AKT muhim o'rin egallaydi.

Darhaqiqat, ta'lim jarayonini tashkil qilishda va chet tillarini o'rgatish jarayonida AKTdan keng foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. AKT sifatli bilim egallanishini va ta'lim samaradorligining sezilarli oshishini ta'minlaydi. Nafaqat chet tili darslari, balki boshqa dars jarayonlari ham turli interaktiv mashg'ulotlar va taqdimotlarsiz o'tmasligi lozim. Kompyuterlar, video uskunalar, magnitofon va kolonkalar, quloqchinlar, elektron kitob va aqlli doskalar kabi AKT vositalaridan chet tilini o'rganishda maksimal darajada foydalanish mumkin. Masalan, kompyuter orqali ko'p narsalarni amalga oshirsa bo'ladi. Microsoft Office ilovasining Power Point dasturi orqali mavzuga doir taqdimotni turli grafiklar, slaydlar, klasterlar, tovushlar, video kliplar va turli animatsiyalar orqali boyitishimiz mumkin. Taqdimot orqali mavzu tushuntirilayotganda turli grafiklar va klasterlardan foydalanish mavzuning aniq va lo'nda bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz tilini oladigan bo'lsak, zamon mavzularini yoki turli grammatik mavzularni ko'rish hissi orqali taqdimotdagi turli mashqlar yordamida tushuntirish mumkin. Taqdimotdagi harakatli va tovushli turli animatsiyalar e'tiborni tortadi va o'ziga qiziqtiradi, bu orqali diqqat mavzuga jamlanadi. Har xil jadvallardan lug'at uchun foydalansa bo'ladi. Bir so'zning uch xil tilda yozib, masalan ingliz tilidagi so'zni rus va o'zbek tillarida keltirish va yonida so'zga mos rasm qo'yish orqali ongda tasavvur paydo bo'ladi va so'zni rasm orqali eslab qolish osonroq bo'ladi. Kompyuter orqali turli videolarni tomosha qilish, filmlar yoki kliplarni subtitr yordamida ko'rish ham chet tilini o'zlashtirishda samarali usuldir. Bu usul orqali so'zlashuv oshadi, yangi so'zlar o'rganiladi va tanish bo'lgan so'zlar takrorlanadi. Hamda vizual ravshanlik samaradorligi oshib, eshitib idrok etish imkoniyatlari kengayadi. Yaqin yillarda o'tkazilgan tadqiqotlardan xulosa qilib shuni aytish

⁴ <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-bosh-vaziri-shavkat-miromonovich-mi-08-09-2016>



mumkinki, insonlar eshitish orqali 20 foiz, ko'rish orqali 30 foiz va bir paytning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali 50 foizdan ko'p ma'lumotni o'zlashtira olishlari mumkin. Shunday ekan, AKT vositalari hisoblangan quloqchin yoki kolonkalar orqali tinglab tushunish qobiliyatini qiyinchiliklarsiz oshirishimiz mumkin. Masalan xoh u chet tilidagi musiqa bo'lsin, xoh odamlar o'rtasidagi so'zlashuv nutqi bo'lsin, biz bularning barchasini AKT vositalari yordamida tinglashimiz va shu orqali bilimimizni oshirishimiz mumkin. Hozirgi zamonaviy asrimizning innovatsion texnologiyalaridan yana biri aqlli doskadir. Biz u orqali chet tilini turli mashg'ulotlarni bir doskada bajarish orqali, turli grafiklar va mashqlar yordamida o'zlashtirishimiz mumkin. Uning afzalliklaridan yana biri, o'tilgan mavzuni ya'ni doskaga yozilgan har qanday yozuvni saqlab qo'yish mumkin. Bu yozuvlardan o'quvchilar xohlagan vaqtlarida foydalana oladilar. Bularning barchasi o'quvchilar faoliyatini diversifikatsiya qilishga, e'tiborni darsga qaratishga va o'quvchining ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgandir⁵.

Chet tilini o'rganishda eng kerakli bo'lgan axborot kommunikatsiyalardan yana biri internetdir. Internet orqali istagan narsamizni yuklab olishimiz yoki istagan joyimizga virtual sayohat qilishimiz mumkin. Internet orqali chet tilini bemalol masofaviy tarzda o'rganishimiz mumkin yoki bo'lmasa hozirda turli chet tilini o'rgatish bo'yicha juda ham foydali bo'lgan saytlar, kanallar, maxsus bloglar ochilgan. Hozirda internet orqali dunyoning mashxur galareyalariga va muzeylariga virtual sayohat qilsa bo'ladi va bu orqali o'rganilayotgan chet tili tarixini bilish va u haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun ham zo'r imkoniyatdir. Bulardan tashqari, internet tarmoqlari orqali turli online yoki offline testlarni yechish, turli interaktiv mashg'ulotlarni bajarish va chet tilini bilishning turli darajalariga moslashgan mashqlarni bajarish mumkin. Bugungi kunda axborot

⁵ M.Aminov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, N. Mahmudov Ish yuritish (amaliy qo'llanma). Toshkent 2017 y. 440 b



texnologiyalari sohasi mamlakatimizning rivojlanishida muhim o'rin tutar ekan, yaqin yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan respublikamizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish yo'lida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijasini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining " Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlashda ustuvor vazifalaridan biri, ijtimoiy soha obektlari, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini internetga ulash vazifasi ham qo'yilgan edi. Bular, albatta, yoshlarimizning zamonaviy tarzda bilim olishlari uchun qaratilgan edi.

Demak, chet tilini o'rganishda va o'rgatishda AKTning qanchalar ahamiyatligini bilib oldik. Axborot texnologiyalari bizga chet tillarini o'qitishda katta imkoniyat eshiklarini ochar ekan. AKT orqali chet tili darslarimiz doimgidan qiziqarliroq va zamonaviyroq bo'lar ekan. AKT dars sifatini yaxshilaydi va bilim olish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, AKT vositalari orqali dars vaqtini tejashimiz va tejalgan vaqtni yanada ko'proq ma'lumot olishga sarflashimiz mumkin. Chet tili darsini turli fotosuratlar, videolavhalar va kinolavhalar bilan boyitish orqali, o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyati kuchayar ekan va natijada bu tilni chuqurroq o'rganishga, uni kashf qilishga sababchi bo'lar ekan. AKT va turli pedagogik metodlar orqali oddiy kitob bera olmaydigan ma'lumotlarni bir zumda yetqizib berish mumkin ekan. O'z-o'zidan AKT ishtirok etgan zamonaviy darslar samaradorligi o'quvchilarda xalqlar va madaniyatlararo qadriyatlarni, munosabatlarni va chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning o'sishiga sababchi bo'ladi. Shunday ekan, chet tilini o'rganishda AKTdan keng foydalanish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Aminov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, N. Mahmudov Ish yuritish (amaliy qo'llanma). Toshkent 2017 y. 440 b.
2. Jeralad Alred, Charles Brusaw, Walter Oliu. Handbook of technical writing. New York, Copyright 2003.
3. Vikram Bisen Priya Business communication. New Delhi 2009.

